

## YOZUV TIZIMI VA UNING MAXSUS KO'RINISHLARI

**Asadova Shaxina Akbar qizi**

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti, Tarjima nazariyasi va amaliyoti fakulteti,  
1-bosqich talabasi

**Xakimbayeva Ozoda Kalandarovna**

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti, Umumiy tilshunoslik kafedrasida katta  
o'qituvchisi

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada insoniyatning buyuk ixtirosi bo'lmish yozuvning paydo bo'lish tarixi va evolyutsiyasi haqida bayon etiladi. Unda transliteratsiya, stenografiya, kriptografiya, kalligrafiya, transkripsiya kabi yozuvning maxsus turlari haqida batafsil ma'lumot beriladi. Shuningdek, maqolada ushbu yozuvning maxsus turlarining bugungi kunda axbarot almashinuvi va fan rivojidadagi o'rni tahlil qilinadi. Tadqiqot yakunida yozuvning svilizatsiya davomida insoniyat xotirasini saqlashdagi ahamiyati bo'yicha xulosalar shakllantirilgan.

**Kalit so'zlar:** yozuv tarixi, stenografiya, kriptografiya, transliteratsiya, kalligrafiya, transkripsiya, tilshunoslik.

Inson kashf qilgan ixtirolarning eng qimmatlisi shubhasiz yozuvdir. Chunki yozuv nafaqat nutqni moddiylashtiradi, balki insoniyatning intellektual merosini asrlar osha bizga yetkazib beradi. Dastlab oddiy toshlarga yozilgan piktografik yozuv bugungi kunda raqamlashtirilgan yozuv shakliga o'tib ketdi. Biz bu maqolada yozuvning nafaqat kundalik muloqotdagi o'rni, balki uning maxsus turlari: axborotni shifrlash, tezkor qayd etish va tovushlarni grafik ifodalash kabi o'ziga xos shakllarini ko'rib chiqamiz.

Transliteratsiya – bir yozuv tizimidagi belgilarning boshqa yozuv tizimi belgilari bilan aynan ifodalanishidir. Bu jarayon tarjima kabi ma'no uzatishga emas, balki so'zning grafik shaklini saqlab qolishga xizmat qiladi. Bu so'z ikkita lotin so'zidan tashkil topgan bo'lib, “trans” – “orqali”, “lit” esa “harf” ma'nolarini anglatadi. Transliteratsiya odatda so'zlarni tarjima qilish kerak bo'lganda yoki tarjima qilishga ehtiyoj bo'lmaganda ishlatiladi. Masalan: ingliz tilidagi astronaut so'zi astronaut deb talaffuz qilinsa ham, biz uni rus va o'zbek tillarida astronavt deb yozamiz. Bu yozuv turining ahamiyati shundaki, xalqaro pasportlar, geografik nomlar va kutubxona kataloglarini yuritishda transliteratsiya qoidalari hayotiy zarurdir.

Stenografiya – insonning oddiy yozuv tezligi uning nutq tezligidan sezilarli darajada ortda qoladi. O'rtacha hisobda inson daqiqasiga 100-150 ta so'z ayta olsa, oddiy yozuv yordamida atigi 15-25 ta so'zni qayd etish mumkin. Ana shu tafovutni bartaraf etish maqsadida stenografiya ixtiro qilingan.

Stenografiyaning o'ziga xos xususiyati shundaki, unda harflar o'rniga soddalashtirilgan geometrik shakllar, chiziqlar va maxsus belgilar qo'llaniladi. Ko'pincha so'zlardagi unli tovushlar yoki so'z oxirlari tushirib qoldiriladi va faqat asosiy ma'no tashuvchi qismi yoziladi. Professional stenografistlar daqiqasiga 120-200 tagacha so'zni yozib olish imkoniyatiga ega.

Kriptografiya – yozuv nafaqat ma'lumotni yetkazish, balki uni begonalardan himoya qilish vositasi ham hisoblanadi. Kriptografiya (yunoncha *kryptos* – “yashirin” va *grapho* – “yozaman”) ma'lumotlarni maxsus algoritmlar yordamida shifrlash san'atidir. Masalan, “Sezar shifri”da har bir harf alifbodagi o'zidan keyingi ma'lum

tartibdagi harf bilan almashtiriladi. Bu usul tarixda harbiy xabarlarining maxfiyligini ta'minlashda qo'llanilgan. Arab olimi Al-Kindiy kriptotahlil asoslarini birinchi bo'lib ilmiy jihatdan ishlab chiqqan.

Kalligrafiya – kalligrafiya shunchaki chiroyli yozuv emas, balki harflar va belgilarni mahorat bilan tasvirlash san'atidir. Bu yo'nalishda har bir harf, chiziq va kompozitsiya estetik hamda falsafiy mazmunga ega bo'ladi.

“Kalligrafiya” atamasi yunoncha *kallos* (“go'zallik”) va *graphein* (“yozmoq”) so'zlaridan kelib chiqqan. Ushbu san'at turi asrlar davomida kitoblarni bezash, muqaddas matnlarni ko'chirish hamda rasmiy hujjatlarni rasmiylashtirishda qo'llanilgan.

Kalligrafiyaning asosiy turlari:

- G'arb kalligrafiyasi
- Sharq kalligrafiyasi
- Arab kalligrafiyasi

Bu san'at bilan shug'ullanish uchun oddiy ruchka emas, balki maxsus qalamlar, hayvon yungidan tayyorlangan mo'yqalamlar, tabiiy pigmentlardan tayyorlangan siyoh va maxsus qog'ozlar talab etiladi.

Transkripsiya – so'zlarning qanday yozilishini emas, balki ularning qanday talaffuz qilinishini ko'rsatadigan usul transkripsiya deyiladi. Bu usul nutq tovushlarini maxsus belgilar yordamida yozib olishdan iborat.

Transkripsiya ikki asosiy turga bo'linadi:

Fonetik transkripsiya – har bir tovushni barcha detallar bilan aniq ifodalaydi va odatda kvadrat qavslar ichida yoziladi.

Fonologik transkripsiya – faqat ma'no farqlovchi asosiy tovushlarni (fonemalarni) ko'rsatadi.

Fonetika tilshunoslikning nutq tovushlarini, ularning hosil bo'lish usullarini, akustik xususiyatlarini, urg'u va bo'g'in kabi hodisalarni o'rganadigan bo'limidir. Uning asosiy obyekti tovush bo'lib, u tovushlarning fizik va artikulyatsion xususiyatlarini tahlil qiladi.

Fonematika tilshunoslikning fonologiya bo'limiga oid tushuncha bo'lib, u tovushlarning til tizimidagi vazifasini, ya'ni ma'no farqlash xususiyatini o'rganadi.

Agar fonetika tovushning fizik xususiyatlarini (qanday aytilishini) o'rgansa, fonologiya uning lingvistik funksiyasini tahlil qiladi. Fonema tilning ma'no farqlashga xizmat qiladigan eng kichik birligidir.

Masalan, *bor* va *tor* so'zlarida **b** va **t** tovushlari ma'noni farqlab turibdi. Demak, ular alohida fonemalardir.

Yozuv insoniyat tarixidagi eng buyuk ixtirolardan biri bo'lib, u nafaqat axborot almashish vositasi, balki vaqt ustidan g'alaba qozonish imkonini beruvchi muhim madaniy hodisadir. Oddiy fonetik belgilar, stenografik yozuvlar, murakkab kriptografik kodlar, nafis kalligrafiya va zamonaviy transkripsiya tizimlari inson tafakkurining cheksiz imkoniyatlarini namoyon etadi.

Bugungi kunda foydalanilayotgan har bir belgi va yozuv shakli ortida ming yillik sivilizatsiyalar tajribasi mujassam. Zero, yozuv mavjud ekan, insoniyat xotirasi abadiy, bilim esa cheksizdir.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Sodiqov A.S, Abduazizov A. Umumiy tilshunoslik. – Toshkent: Fan, 1979. – 46
- b.
2. Usmonov S. Umumiy tilshunoslik. – Toshkent: Fan, 1972. – 73 b.
  3. Xolmanova Z. Tilshunoslikka kirish. – Toshkent: Fan, 2007. – 34 b.